

“QADIMGI XALQLARDAN QOLGAN YODGORLIKLAR” ASARIDA JAMSHID MIFOANTROPONIMI XUSUSIDA.

Oygul MIRZAXMEDOVA

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD),

Davlatobod tumani 42-maktab o'qituvchisi

tel: +998973714072

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida uchraydigan **Jamshid** mifoantroponimi, uning kelib chiqishi, semantik xususiyatlari hamda qadimgi xalqlar mifologiyasidagi o'rni tahlil qilinadi. Jamshid obrazi tarixiy shaxs va afsonaviy qahramon tushunchalari uyg'unligida shakllangan bo'lib, u qadimgi Sharq xalqlarining olam, hukmdorlik, bunyodkorlik va insoniyat taraqqiyoti haqidagi tasavvurlarini o'zida mujassam etadi. Asarda Jamshid nomi bilan bog'liq mifologik qarashlar, uning xalq og'zaki ijodi va tarixiy-madaniy xotiradagi aks etishi yoritiladi. Shuningdek, mifoantroponimning lingvomadaniy va onomastik xususiyatlari ochib berilib, Jamshid nomining qadimiy mifologik qatlamlarni o'rganishdagi ahamiyati ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari Jamshid obrazining nafaqat badiiy-mifologik, balki tarixiy va madaniy mazmunga ega ekanligini asoslashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, yozma adabiyot, mifoantroponim, nom, Navro'z, Yima, afsona.

KIRISH

“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” noyob va ko'hna bitiklardan biri bo'lib, unda o'tmish davrlarida Movarounnahr, Xuroson, Eron, Arabiston, Afrika, Ozarbayjon va Evropa hududlarida yashagan o'zaro aloqa va hamkorlikda bo'lgan etnoslarning tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, ular amal qilgan siyosiy, falsafiy, diniy qarash va e'tiqodlar, hududlarning ba'zi tabiiy-geografik tuzilishi va sharoitiga oid

ma'lumotlar saqlanib va bizgacha yetib kelgan. Bu "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"ning buyuk madaniy-ma'naviy meros, nodir qadriyat namunasi ekanini ko'rsatadi. "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida hayotning turli sohalariga oid bilimlar o'z ifodasini topgan. Tarixiy onomastika onomastik birliklarning tarixi, ularning morfologik va fonetik qonunlari doirasida hamda jamiyat taraqqiyoti ta'sirida o'zgarib borishini o'rganadi¹. Asar yuzasidan ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilganiga qaramay, tarixiy onomastika sohasida "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorlik"ning haligacha fanda tadqiq qilinmagan jihatlari anchagina.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda **tavsifiy, semantik va lingvomadaniy tahlil** usullaridan foydalanildi. "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida Jamshid mifoantroponimining qo'llanishi, ma'nosi va mifologik mazmuni tahlil qilindi. Shuningdek, nomning xalqning tarixiy-madaniy qarashlari bilan bog'liqligi qiyosiy tahlil asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida onomastik yondashuvdan foydalanilib, Jamshid nomining mifoantroponim sifatidagi xususiyatlari aniqlandi.

Jamshid – qadimgi afsonalarga ko'ra, Eronda hukmdorlik qilgan peshdodiylar sulolasining to'rtinchi hukmdorining nomi. Yozma adabiyotda *Jamshid* nomi Firdavsiy, Tabariy, Beruniy, Navoiy kabi shoir va olimlarning asarlarida tilga olinadi.

*Bu Jamshid dengizdan dastab dur olgan kundir. Bundan oldin dur hech kimga ma'lum bo'lmagan. Bu kun Quyoshning Hamal burjiga kirishiga yaqin yaqin bo'lar edi. Odamlar uni hayit qilib shodlanishar, qish orqada qolib, uning mashaqqatlari ketishi va bahor kelib, hushbo'y hidlar esishi sababli xursand bo'lishardilar*².

M.Jo'rayev, D.O'rayevalar fikricha, *Jamshid*(Yima) afsonaviy qahramon, mifoantroponim³. R.Sa'dullayeva ham *Jamshid* nomini afsonaviy ismlar qatorida

¹ Mirzaxmedova O. Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asaridagi ayrim kosmonimlar xususida" // Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika. 2026 / 6. – Samarqand, 2026. – B. 213.

² Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. I том. – Т.: Фан, 1968.– Б. 264.

³ Jo'rayev M., O'rayeva D. O'zbek mifologiyasi. –Toshkent.: O'qituvchi, 2019. – Б 47.

beradi⁴. “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida uning hukmronligi 616 yil davom etgani keltirib oʻtilgan. “Avesto”da uni *Yiyma Vayvahvant*ning oʻgʻli, pahlaviyda *Yamak yoxud Jamol Vayvanghoning* oʻgʻli, sanskritda *Yama Vayasvat*ning oʻgʻli deb atalgan. *Yima* adolatli hukmdor boʻlib, uning saltanati zamonida qahraton qish boʻlgani, insonlar va ularning mol-mulkini suv toshqinidan saqlab qolgani, uy-joylar barpo qilgani xususida maʼlumotlar bor.

H.Karomatov fikricha, Vendidat, Bundaxishin, pahlaviy matnlarda va Firdavsiy dostonida ilk otashgohni yoqqan Quyosh oʻgʻli – iloh Yimaning faoliyati Xorazm – “Quyosh oʻlkasi” bilan bogʻlangan. Olimlar *Yima* saltanati Orolboʻyi qabilalari hududida yaratilib, uning oʻzi esa, xorazmlik boʻlgan, deb hisoblashadi⁵.

Q.Olloyorov fikricha, *Jamshid* nomi tarixiy nomlar sirasiga kiradi⁶. Zardushtiylarning Xorazmdagi xarobalarini tadqiq etgan S.P.Tolstov fikrlariga koʻra, “Devorlari” *Jamshid* sharobni ixtiro etganligi boisidan, shoirlar oʻrtasida “Qadahiy” Jomi Jam nomi bilan mashhurdir. Keyinchalik topilgan qadimgi hind brahmanlari afsonalariga koʻra, bu hikoyaning hind afsonalaridan naql etilgani maʼlum boʻldi⁷.

A.Navoiyning “Tarixi muluki Ajam” dostonida Jamshidaga bunday taʼrif keltiradi: “*Baʼzan ani Tahmurasning qardoshi debdurlar va baʼzi qardoshining oʻgʻli. Chun saltanatqa oʻlturdi, jahon mulkin adl va dod bila tuzdi*”⁸.

Muarrixlar va solnomachilar XI asrdan boshlab shaxsning jamiyatdagi rolini boshqacha talqin qila boshladilar. “Avesto”dagi “Oltin davr” afsonasi qahramoni *Jamshid-Yima*(“Yasna”, IX boʻlim, 77-bet) nomi bilan bogʻliq rivoyat bunga misol boʻla oladi. Jamshid yovuz kuchlarga qarshi kurash olib boradi. U “Hamma mavjudotlardan eng goʻzali, odamlar orasida quyosh misoli”deb taʼriflanadi⁹.

⁴Saʼdullayeva R. Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” onomastikasi. filologiya fanlari nomzod...diss...avtoreferati. – Qarshi. 2023.– B.17

⁵ Кароматов Х. Ўзбекистонда мозий эътиқодлар тарихи. – Тошкент, 2008. – Б.196.

⁶ Оллоёров Қ. Хоразм дostonлари ономастикаси (“Тўрўғли” ва “Ошикнома” туркум дostonлари асосида). Филол.фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)..дисс. – Урганч, 2018. – Б.117

⁷ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 3 жилд. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2002. – Б.549

⁸ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн олтинчи том. – Тошкент: Фан, 2000. – Б. 195

⁹ Akilova K., Abdurahmonov I. Tasviriy sanʼatda afsona va rivoyatlar. Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent: Choʻlpon nomidagi nashriyot-matbaaijodiy uyi, 2016. – B.152

Qadimgi hind afsonalarida *Jamshid* yoki *Jomo Shaydo* quyoshni anglatuvchi ma'bud ismi bo'lib, bu ismni tashkil qiluvchi so'zlarning birinchisi – “hukmdor” va ikkinchisi – “quyosh” ma'nosidadir, ya'ni “quyosh podshoh” demakdir¹⁰.

“O'zbek ismlari ma'nosi” izohli lug'atida nom quyidagicha izohlangan: *Jamshid* fors-tojkcha so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosi ulug', ulkan, qudratli ma'nolarini beradi¹¹.

Qadimiy bayramlardan Navro'zning tantana qilinishi ham *Jamshid* nomi bilan bog'liqligi afsonalarda o'z ifodasini topgan. Manbalarda Navro'z *Jamshid* ing Ozarbayjonga safar qilgan kuni degan ma'lumotlar bor. *Jamshid* u yerga kelgach, o'ziga bir shohona taxt yasattirib, turli qimmatbaho toshlar, dur-u javohirlar bilan bezatilgan tojini boshiga kiyib, taxtiga o'tiribdi. Bu orada quyosh chiqib, oftobning nuri *Jamshid*ning toji bilan taxtiga tushibdi. Birdan butun tevarak-atrof munavvar bo'lib ketibdi. Bu mo'jizani ko'rgan, hayratlangan el-ulus *Jamshid* taxtiga o'tirgan o'sha kunni Navro'z, ya'ni yangi kun deb bayram qilgan ekan¹².

*Jamshid*ning Ozarbayjonga kelishi va navro'z bilan bog'liq voqealar “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida ham keltirib o'tilgan. *Ba'zilarining gumonicha, Jamshid shaharlarni aylanib yurishni yaxshi ko'rar edi. U Ozarbayjonda bo'lishni istab, tilladan yasalgan taxtga o'tirdi va odamlar taxtni yelkalariga ko'tardilar. Jamshidga quyosh nuri tushib, odamlar uni ko'rgach, ulug'ladilar va shodlanib, o'sha kunni hayitga aylantirdilar*¹³.

Firdavsiy “Shohnoma” dostonida ham Navro'z geortonimi *Jamshid* bilan bog'lanadi: “*Barcha jam, odamlar qarar taxtiga, Jahon qoyil bo'lib shukuh baxtiga. Jamshidga sochishar oltin-u gavhar, Shu kunni yangi yil- Bayram deyishar*”¹⁴

NATIJALAR VA TAHLIL

Tadqiqot natijasida “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida **Jamshid** mifoantroponimi qadimgi xalqlarning mifologik va madaniy qarashlarini ifodalovchi muhim nomlardan biri ekanligi aniqlandi. *Jamshid* obrazi hukmdorlik,

¹⁰ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 3 жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2002. – Б.549.

¹¹ Бегматов Э. Ўзбек исмлари маъноси. 2-нашри. – Тошкент: ЎзМЭ, 2007. – Б.133.

¹² Mirzayev T., Jo'rayev M. Navro'z. – Toshkent: Fan, 1992. – B.19

¹³ Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. I том. –Т.: Фан, 1968. – Б.255

¹⁴ Абулкосим Фирдавсий. Шохнома. Танланган дostonлар. – Тошкент, 1984. – Б.30.

bunyodkorlik va qudrat tushunchalari bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Mifoantroponimning semantik xususiyatlari uning oddiy shaxs nomi emas, balki muayyan mifologik mazmunni ifodalovchi nom ekanligini ko'rsatadi. Natijalar Jamshid nomi orqali xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi va qadimiy mifologik tasavvurlari aks etishini ko'rsatdi.

XULOSA

“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asaridagi **Jamshid** mifoantroponimi qadimgi xalqlarning mifologik dunyoqarashi va tarixiy-madaniy xotirasini aks ettiradi. Jamshid obrazi bunyodkorlik, qudrat va adolat timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Uning nomi xalqning qadimiy mifologik tasavvurlari hamda lingvomadaniy qadriyatlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абулқосим Фирдавсий. Шохнома. Танланган достонлар. – Тошкент, 1984. – Б.30.
2. Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. I том. – Т.: Фан, 1968.
3. Akilova K., Abdurahmonov I. Tasviriy san'atda afsona va rivoyatlar. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaaijodiy uyi, 2016. – B.152.
4. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн олтинчи том. – Тошкент: Фан, 2000. – Б. 195.
5. Бегматов Э. Ўзбек исмлари маъноси. 2-нашри. – Тошкент: ЎзМЭ, 2007. – Б.133
6. Jo'rayev M., O'rayeva D. O'zbek mifologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – Б. 47.
7. Кароматов Х. Ўзбекистонда мозий эътиқодлар тарихи. – Тошкент, 2008. – Б.196.
8. Mirzayev T., Jo'rayev M. Navro'z. – Toshkent: Fan, 1992. – B.19.

9. Mirzaxmedova O. Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asaridagi ayrim kosmonimlar xususida” // Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika. 2026 / 6. – Samarqand, 2026. – B. 213.
10. Оллоёров Қ. Хоразм дostonлари ономастикаси (“Гўрғули” ва “Ошиқнома” туркум дostonлари асосида). Филол.фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)..дисс. – Урганч, 2018. – Б.117.
- 11.Sa’dullayeva R. Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” onomastikasi. filologiya fanlari nomzod...diss...avtoreferati. – Qarshi, 2023. – B.17.
- 12.Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 3 жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2002. – Б.549.